

**Тиркашева Зулайхо Содик қизи**  
**Халқаро инновацион университети “Педагогика ва жисмоний маданият”**  
**кафедраси ўқитувчиси**  
**Орипова Нодима Халиловна**  
**Қарши ДУ, Мактабгача таълим кафедраси мудири, п.ф.н., доц.**  
**Email: [tirkashevazulayho@gmail.com](mailto:tirkashevazulayho@gmail.com)**  
**Тиркашева Зулайхо Содик қизи**  
**преподаватель, кафедра «Педагогика и физическая культура» Международного**  
**инновационного университета, Узбекистан, г. Карши**

---

## **MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA UNING TARAQQIYOTIDA BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**АННОТАЦИЯ:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimining mazmuni, maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi va ushbu ta'lim tizimini rivolantirishda davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga oid masalalar bayon etilgan.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga qo'yilgan talablar, maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagogik boshqaruv va boshqaruv faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari keltirib o'tilgan.

**Калит сўзлар:** Ta'lim tizimi, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, boshqaruv tizimi, bolalar tarbiyasi, psixik va jismoniy rivojlanish, ilg'or pedagogik tajriba, maktabgacha ta'lim tashkiloti, nodavlat ta'lim xizmati, sog'lom bola, bolalarni maktabga tayyorlash, oila tarbiyasi, rahbar faoliyati.

---

## **РЕФОРМА СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ В ЕЕ РАЗВИТИИ**

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье изложены вопросы, касающиеся содержания системы дошкольного образования, системы управления дошкольным образованием и процесса реформ, проводимых нашим государством в развитии этой системы образования.

Также приведены требования к деятельности дошкольной образовательной организации, основные цели и задачи педагогического управления и управленческой деятельности в системе дошкольного образования.

**Ключевые слова:** система образования, дошкольное образование, воспитатель, система управления, воспитание детей, психическое и физическое развитие, передовой педагогический опыт, дошкольная организация, негосударственная образовательная служба, здоровый ребенок, подготовка детей к школе, семейное воспитание, деятельность руководителя.

---

Maktabgacha yosh davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Xuddi mana shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya ta'sirida bolaning axloqiy sifatleri shakllana boshlaydi, tevarak-atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatda ana shu egallab olgan axloq qoida va meyorlari ta'sirida ish tutadi. Mana shu yosh davrda bolalarning o'sishi va rivojlanishida ota-ona va tarbiyachilarning e'tibori hamda tarbiyaviy ta'siri tizimli va izchillikda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini

zamon talablari asosida tashkil etish yuzasidan amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim tizimida quyidagi yo'nalishlarda islohotlar va amaliy chora-tadbirlar tashkil etilmoqda:

- 1) maktabgacha ta'lim sohasida;
- 2) umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- 3) oliy ta'lim;
- 4) oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- 5) qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Ushbu rejali dasturlar asosida ayniqsa, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning boshlanishi bugungi kunda ushbu sohaga alohida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Maktabgacha talim tashkilotlari uchun pedagog va boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va salohiyatini oshirish borasida ham ijobiy o'zgarishlar bu tizimning jamiyat ravnaqi uchun olib borilayotgan vazifalardan biri ekanligini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi asosiy maqsadlaridan biridir. Mazkur tizimda innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, internet tarmog'iga ulanishi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlarni tizimli yo'lga qo'yilishi, islohotlar natijasida maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari ishlab chiqilib, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi [1].

Hukumatimizda maktabgacha ta'limga bo'lgan asosiy e'tibor yil sayin oshib bormoqda, bu borada davlat dasturlari va davlat hujjatlarida ham talab va normalar kiritilgan bo'lib ularning asosiy e'tibori ushbu tizimni yanada takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroridan kelib chiqib belgilangan maqsadli vazifalar va ustuvor yo'nalishlar asosida bu tizim faoliyati asta-sekin tartibga keltirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida olishi, maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani tarbiyachi-pedagoglar amalga oshiradi deb keltirilgan [2].

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6 – 7 yoshga yetguncha oilada hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalishda ishlash, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy, axloqiy, jismoniy,

estetik va ma'naviy rivojlanishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va yaxshi yo'lga qo'yish maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkiloti boshqaruv tizimining faoliyati uchun ahamiyatli va ularning asosiy ustuvor vazifalari hisoblanadi [3]. Aynan maktabgacha ta'lim-tarbiya tizimidagi pedagogik boshqaruv - bolalar va ularning ota-onalari ehtiyojlarini qondirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalarining madaniy-ma'rifiy muassasalar bilan birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va jamiyatning shaxsga qo'yadigan zamonaviy talablarini hisobga olgan holda bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Eng asosiysi, maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik boshqaruvning asosiy maqsadlaridan to'xtaladigan bo'lsak, bu maktabgacha ta'lim muassasasida boshqaruvni tashkil etishning oqilona usullarini aniqlash, tarbiyachi, logoped, difektologlarning vazifalariga sidqidildan yondashishni yo'lga qo'yish va ularning o'z ustida ishlashi, ijodiy izlanishi va malakasini oshirishga yordam berish. Ta'kidlash joizki, maktabgacha ta'lim oldida turgan maqsad hamda vazifalardan yana biri jamoat va xayriya tashkilotlari, mahalla, xalqaro jamg'armalar, shuningdek tadbirkorlik tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik asosida ishlashni yo'lga qo'yish ham kiradi. Bu borada ham boshqaruv tizimi tashkilot faoliyatiga ijodiy yondashishi va innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi uchun ijobiy muhit yaratishi zarur [4].

Demak, zamonaviy ta'lim-tarbiya talablariga mos ravishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanishida mashg'ulotlarni innovatsion yondoshuv asosida o'tkazish muvaffaqiyat garovi, chunki bu bolalarni yanada mashg'ulotlarga qiziqtirishga, faollik va o'zaro hamkorligini oshiradi hamda bolalarni o'z-o'zini takomillashtirishning asosiy mezonidir. Shu boisdan maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishida tarbiyachilar tomonidan mashg'ulotlarda innovatsion yondoshuv asosida maktab ta'limiga tayyorlash texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish ham tarbiyachining, ham boshqaruv faoliyatining ustuvor vazifalaridan biridir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. T.:2016y. 29- dekabr.
2. Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan Davlat talablari //Maktabgacha ta'lim. – T.: 2000. №1. 9 – 12-b.
3. Djurayeva R. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari. – T.: 2015. Uslubiy qo'llanma.
4. Novikova G.P. Zamonaviy maktabgacha ta'limni boshqarish. /qo'llanma/. - M.: Ventana-Graf, 2007.- 80 b.